BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR (ONA TILI FANI MISOLIDA)

Taylakova Dilnoza Norbekovna
Oriental universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati, ona tili fanlarini o‘qitishda, bo‘lajak mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ona tili ta’limida nazariya va amaliyot uyg‘unligi asosidagi integratsiyaning, ilm-fan, ishlab chiqarish va ta’lim alyansining zamonaviy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan klaster yondashuvining ahamiyatli tomonlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, integratsiya, innovatsion yondashuvlar, mahorat, faoliyatli yondashuv, ta’lim, pedagogik salohiyat.

Аннотация. В стате рассматриваеця внедрение инновационных подходов к повышению профессионалных компетенсий будущих учителей, развитие профессионалных компетенсий учителей в преподавания родной язык, повышение качества подготовки будущих спесиалистов, интеграция теории и практики в историческое образование, описаны одно из направлений современные приоритеты науки, производства и образования.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, интеграция, инновационные подходы, мастерство, деятельностный подход, образование, педагогический потенциал.

Abstract. The article discusses the introduction of innovative approaches to improving the professional competencies of future teachers, the development of professional competencies of teachers in the field of teaching history, improving the quality of training of future specialists, the integration of theory and practice into mother language education, one of the directions describes the modern priorities of science, production and education.

Key words: professional competence, integration, innovative approaches, skills, activity approach, education, pedagogical potential.

Kirish

Dunyo bo‘ylab ta’lim tizimda, ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar, loyihalar olib borilmoqda, ayniqsa pedagogik kasbiy tayyorgarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda ham pedagogik kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ta’lim muassasalarida zamonaviy moddiy texnik baza yaratilgan hamda innovatsion ta’lim dasturlari ishlab

ISSN 3030-3907

chiqilgan. Amalga oshirilayotgan ko‘plab islohotlarda demokratik tamoyillar asosidagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida oliy ta’lim tizimi ta’lim oluvchilarining muayyan mutaxassislik bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini yanada takomillashtirish zarurati ta’kidlab o‘tilgan [1]. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borish zarurligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Yuqorida berilgan vazifalarni amalga oshirishda ta’lim kontekstida ko‘p bosqichli uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan samarali innovatsion modellarni yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Bu izlanishlar bo‘yicha respublikamiz olimlaridan L.Axmedova, U.Begimqulov, N.Muslimov, B.Rahimov, N.Tayloqov, Sh.Sharipov va boshqalar ta’lim sohasida ijtimoiy-pedagogik, akmeologik masalalarga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan va bu tadqiqotlarda bevosita muayyan yo‘nalishlardagi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, pedagogning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari pedagog olimlar I.Askarov N.Azizxo‘jayeva, A.Aliyev, Yu.Axrorov, A.Verbitskiy, R.Jo‘rayev va A.Hamidovlarning ishlarida ham tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida V.Baydenko, A.Zalevskaya, E.Zeyer kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish usullarini turli jarayonlarda tahlil qilish va tizimlashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Biroq innovatsion yondashuvlar asosida oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning integrativ mazmuni va metodik shart-sharoitlarining ishlab chiqilmaganligi mazkur yo‘nalishda yanada ko‘proq ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, ona tili fanlarini o‘qitishda, mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiytexnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la

ISSN 3030-3907

ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda kompetentlik bu insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma’lum bir muammoni hal etishga doir iqtidori, degan xulosaga kelish mumkin. Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi muhim komponent – o‘qituvchi va uning kasbiy kompetentligi hamda innovatsion faolligi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub’yektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan sub’yektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi [2]. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeyer kasbiy kompetentlikning vazifaviy rivojlanishini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy jihatdan muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatadi [3]. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili bo‘lajak ona tili fanlarini o‘qitish mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik, diognostik, kommunikativ, konstruktiv, ekstremal, motivatsion kabi qator o‘ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to‘liq izohlanishiga imkon beradi [5]. Kasbiy kompetentlikda bo‘lajak ona tili fanlarini o‘qitish mutaxassisi tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi nazarda tutiladi. Bu tushuncha bo‘yicha turlicha ta’rif va yondashuvlar mavjud. N.M.Muslimovning fikriga ko‘ra, “kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi [6]. V.I.Andreyevning fikricha, kompetensiya ma’lum o‘quv, kasbiy va boshqa majmuaviy masalalarni hal qilishda namoyon bo‘luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko‘rsatkichlar bo‘lib, u shaxsning ijobiy motivatsiya, bilim, mahorat, iqtidor va ijodiy faoliyat tajribasini o‘z ichiga oluvchi tayyorgarlik darajasidir [7]. N.V.Tarasova kompetensiya tushunchasini muammoni hal etishga qaratilgan bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasida aloqadorlikni ta’minlash imkonini beruvchi bilim, qadriyatlar va idrokka asoslangan umumiy qobiliyat sifatida talqin etadi [8].

NATIJA VA MUHOKAMA

ISSN 3030-3907

Bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini yanada takomillashtirish bu yo‘nalishga nisbatan yangi innovatsion yondashuvlarni, zamonaviy ta’lim paradigmalarini tatbiq etishni talab etadi. Ta’limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish davlat ta’lim standartlarida keltirilgan tayanch va umumfan kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quv-biluv jarayonlarini samarali tashkil etishning yangi texnologiyalari va shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu esa ona tili ta’limining nazariy yondashuvlar bilan birga amaliy - faoliyatli yondashuvni, ya’ni olingan nazariy bilimlarning amaliy ehtiyojlari bilan birlashtirish zarurati bilan bog‘liq jarayondir. Ona tili ta’limida integratsiya masalasi yangi hodisa emas, mamlakatimizda nafaqat ona tili ta’limida, balki barcha sohada nazariy asoslar etarli bo‘lishi bilan birga, talaygina amaliy ishlar ham mavjud. Avvalo, kadrlar tayyorlash sohasida ham “ta’lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish” [9], vazifalari belgilab qo‘yilgan. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida uni integratsiyalash innovatsion paradigma hisoblanib, ta’lim turlari va ta’lim jarayonidagi pedagoglarning o‘zaro hamkorligi, ta’lim oluvchilarga berilgan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini takomilashtirishga qaratilgan yondashuvlar doirasida ijodiy, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish mumkin. Yuqorida keltirilgan ta’limdagi innovatsion paradigma nazariya va amaliyot uyg‘unligida kechadigan hamda son va sifat o‘zgarishlariga olib keluvchi, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim bilan bog‘liq sub’yektlarning faoliyat tizimi ko‘rinishida kechadi. Har qanday innovatsiya tashabbus mahsuli bo‘lib, u ta’lim sifati va mazmunini rivojlantirishga qaratiladi, umuman olganda innovatsiyalar rivojlantirish tamoyiliga asoslanishi zarur bo‘ladi. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalarning asosi tizimga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar ekanini hisobga olish zarur. Xususan, oliy ta’lim muassasalariga faqatgina muayyan sohadagi kadrlar tayyorlash muassasalari sifatida emas, balki ilmiy g‘oyalar va loyihalarni to‘plovchi, ulardan ijtimoiy mahsulot yaratuvchi va texnologiyalar barpo etuvchi muassasa sifatida qarash ham lozim. Bunda oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog-o‘qituvchilarning mehnat natijadorligini oshirish, ularning faqatgina ta’lim berishdan iborat faoliyatlarini iqtidorli yoshlarni dolzarb ilmiy-texnikaviy muammolarni hal qilishga jalb qilish tomon burish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, oliy ta’lim tizimining innovatsion faoliyati va jamiyat bilan bog‘liq integratsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan ta’lim, fan va ishlab chiqarishning

ISSN 3030-3907

jamiyat bilan integratsiyasi ahamiyatining tobora ortishi va zaruratining kuchayishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– globallashuv jarayonining ta’lim, fan va ishlab chiqarish munosabatlariga ta’sirining ortishi; – ilmiy ishlanma va natijalarning ishlab chiqarishga joriy qilish muddatlarining keskin qirsqarishi; – ilmiy tadqiqot sohasida o‘zaro raqobatning kuchayib borayotganligi;

– ishlab chiqarish sohasida o‘zaro raqobatning kuchayib borayotganligi;

– fan va ishlab chiqarish sohalarida samaradorlikning asosi kadrlar salohiyatiga bog‘liqligining tobora kuchayib borayotganligi;

– ilmiy ishlanmalar, tadqiqot natijalarining tez fursatda ahamiyatining yo‘qolishi;

– integratsiyadan barcha sub’yektlarning birday manfaatdor bo‘lishi [9]. Ta’lim, fan, ishlab chiqarish va jamiyat integratsiyasida ta’lim tizimining ahamiyati amaliyotchilarning bilimi va malakasiga bog‘liq. Ilm-fan yutuqlari bu borada amaliyotchilarning bilimi va malakasiga yangidan-yangi talablar qo‘ymoqda. Bu jarayon, albatta, ta’lim tizimini ham doimo o‘zgarishi va takomillashishi zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu o‘zgarishlarning pirovard natijasi pedagogning kasbiy kompetentligida namoyon bo‘ladi. Pedagog kasbiy kompetensiyalarining jamiyat hayotidagi ahamiyati tobora ortib, chuqurlashib bormoqda. Endilikda amaliyotda orttirilgan bilim va ko‘nikmalar insonning bu boradagi ehtiyojlarini to‘la qondirolmay qoldi. Yangidan-yangi bilim va ko‘nikmalarga, ularning amaliyot bilan munosabatida o‘z mustaqil o‘rniga ega bo‘lish ishlab chiqarishning istalgan shaklida faoliyat olib borayotgan kadrlar uchun fundamental ahamiyatga aylanib bormoqda. Har qanday sohada samaradorlikka erishishning sharti kadrlar salohiyatiga tobora bog‘liq bo‘lib bormoqda. Bu esa ta’lim va ishlab chiqarish orasidagi masofani tobora qisqartirmoqda, ta’limni iqtisodiy faoliyatning zaruriy tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Ilm-fan, ishlab chiqarish va ta’lim alyansining zamonaviy ustuvor yo‘nalishlaridan biri, shubhasiz, klaster yondashuvidir. Bunday yondashuv, nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari, balki logistika va bozor xarajatlarini ham kamaytirish, inson resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Klaster nazariyasi muayyan faoliyat turlarining mintaqaviy ta’lim kampusida jamlanishi bo‘lib, o‘sha sohaning samarali ishlashi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Ta’lim, fan, ishlab chiqarish va jamiyat integratsiyasining shunday klasterlari tashkil qilingan taqdirda, ushbu usul ko‘p yillar davomida rivojlanishning ustuvor yo‘nalishini beradi. Klasterning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun ishlab chiqarish korxonalari, muayyan ta’lim muassasalari, xokimiyat va boshqa vakillik organlarining (moliya muassasalari, ta’lim muassasalari, madaniyat muassasalari va h.k.) qat’iy taraqqiyot strategiyasi, ish beruvchining manfaatlarini mustahkamlash imkonini beradigan dasturi bo‘lishi lozim. Klaster

ISSN 3030-3907

yondashuvi aniq hudud kesimidagi muayyan sohaning o‘ziga xosligini ko‘rib chiqish va tavsiflash imkonini beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, klaster ishtirokchilari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgani uchun ayrim klaster tarkibiy qismlarining noaniq ishlashi boshqa klaster qismlari dinamikasining salbiy ishlashiga turtki bo‘lishi mumkin. Ta’lim, fan, ishlab chiqarish va jamiyat integratsiyasini samarali amalga oshirish uchun pedagogik salohiyat, innovatsion muhit, innovatsion ta’lim, ta’lim kampuslari hamda texnoparklar muhim hisoblanadi. Ushbu komponentlarda kadrlar tayyorlashda ilmiy-pedagogik salohiyatning o‘rni, rivojlanish tamoyiliga asoslanganlik, zamonaviylik, yangilanish, modellashtirish, nazariya va amaliyot uyg‘unligi kabi integratsiya jarayoni uchun muhim bo‘lgan jihatlar o‘z aksini topgan [10]. Integratsiyalashuv jarayonida mazkur sohalar ta’lim, fan va ishlab chiqarish ketma-ketligida bo‘lishi va bunga nisbatan tabiiy hol sifatida qaralishi lozim. Sohalarning bu munosabatida ham ma’lum darajada taraqqiyot kuzatiladi, ammo buni zamon talablariga mos, raqobatbardosh ishlab chiqarish munosabatlari, deya olmaymiz. Integratsiya ta’minlanishi uchun ishlab chiqarish ta’lim va fanga, ta’lim esa, o‘z navbatida, fanga iste’molchi munosabatida bo‘lishi ilmiy mantiqqa mos keladi. Bu esa integratsiyalashgan munosabatda ilmiy-pedagogik salohiyat komponen-tining darajasi fan va ta’lim sohasida ishlab chiqarish soha vakillariga nisbatan ilmiy salohiyatining ustunligini belgilaydi. Klasterli yondashuv innovatsion muhitni talab qiladi, u esa nazariya va amaliyot integratsiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zida innovatsiyalarni joriy qilish bilan bog‘liq shart-sharoitlar, me’yoriy-huquqiy asoslar, bu boradagi davlat siyosati va innovatsiyalarga nisbatan qarash hamda munosabatlarni birlashtiradi. Innovatsion ta’lim esa mavjud o‘qitish usullariga nisbatan yangicha yondashuv va usullarni joriy qilish bilan yuzaga keladi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarining ijodiy salohiyatini oshirish va talabalarda intellektual salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion muhit va innovatsion ta’lim, pirovardida, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlantiradi. Oliy ta’lim muassasalarida mavjud o‘quv fanlarini o‘qitishda ta’lim samaradorligini oshirish va uning natijasini belgilab beruvchi yuqori ko‘rsatkichlarga ega ta’lim oluvchilarni ta’minlash bo‘yicha nazariy va amaliy asoslarni taqdim qilish maqsadga muvofiq. Aynan shu maqsadni amalga oshirishda yuqorida integratsiyaga berilgan tavsiflarni qo‘llab-quvvatlagan holda, ona tili ta’limida yuqori ko‘rsatkichga ega mutaxassislarni ta’minlash uchun o‘quv jarayonlarini kurslararo, fanlararo, bo‘lim va mavzulararo nazariya va amaliyotning integrallashgan usullarida olib borish samarali usul ekanligini ta’kidlab o‘tish mumkin. Ona tili ta’limi kontekstida ta’lim turlari o‘rtasidagi integratsiyani takomillashtirish ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik

ISSN 3030-3907

kompetentligini raqobat maydonida yanada rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Bunda mintaqaviy oliy, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari, maxsus bilim yurtlari va boshqa sub’yektlarni o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, innovatsion tajribalarni ommalashtirish, o‘zaro tajriba almashish, oliy ta’lim muassasalari pedagog o‘qituvchilari ilmiy salohiyatidan ta’lim sifati samaradorligini oshirishda keng foydalanish bo‘lajak ona tili fanlari pedagog-o‘qituvchilarini ta’minlashda foydali mexanizm hisoblanadi. Bu bo‘lajak mutaxassislarni ona tili fanlarini o‘qitish sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etishida namoyon bo‘ladi. Ta’lim oluvchi olgan bilimlarini amaliy jarayonlarda qo‘llay olishi orqali ta’lim oluvchi ichki dunyosi bilan jamiyat o‘rtasidagi muhim kompetensiyalar shakllana boshlaydi. Bunday ta’lim turlari va ta’lim mazmuni integratsiyasi natijasida shakllangan kompetensiyalar shaxsning keyingi faoliyatida uchraydigan muammolarni bartaraf etishida, kasbning turli sohalariga tayyor bo‘lishga, umuman olganda kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quv jarayonlarini integratsion yondashuv asosida olib borishning quyidagi muvaffaqiyatli tomonlarini keltirib o‘tish mumkin: – integratsion yondashuvdagi o‘quv jarayonlarida ta’lim oluvchi tabiatni butun, yaxlit holda tasavvur etadi; – ta’lim oluvchi imkoniyatlari ortib, u mantiqiy fikrlaydi, mavjud xodisalar, sabablar va ularning echimlari bo‘yicha mustaqil mushohada yuritadi, natijada uning muloqot, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlari, nostandart fikrlash darajasi rivojlanadi; – bunday o‘quv jarayonlarida pedagogning kasbiy kompetentlik darajalari ortadi. Demak, o‘quv jarayonlarini innovatsion-integratsion asosda tashkil etish nafaqat ta’lim sifatini, ta’lim oluvchilar dunyoqarashini ham har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Integratsion o‘quv jarayonlarini olib borishda birinchi navbatda, ta’lim oluvchiga kurslararo, fanlararo, bo‘lim va mavzulararo bog‘liqlikni etkazib berish maqsadga muvofiq, aks holda ta’lim oluvchi idrok qilmagan integratsiya davomida tushunmovchilikka duch kelishi, mavhum holatga tushib qolishi, jarayon oxirida ham noto‘g‘ri xulosa taqdim qilishi mumkin. Ta’lim turlariaro kompetensiyaviy talablarni ishlab chiqish va joriy etilishida ta’lim jarayoni integratsiyasi klaster yondashuvi asosida tashkil etish samarali natijalar beradi. Ta’lim samardorligini oshirishda pedagoglar bilimini takomillashtirish, ta’lim oluvchilar qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish tavsiya etiladi. Shunday qilib ta’lim tizimidagi integratsiya jarayoni nafaqat pedagogo‘qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda, balki har bir sub’yektning quyidagi maqsadlarga erishishiga imkon beradi:

ISSN 3030-3907

– ta’limga yangicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqarish va tatbiq etishda bundan manfaatdor bo‘lgan barcha hamkorlar imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z mavqeyini yanada oshirish;

– umumiy maqsadlardan kelib chiqqan holda, xususiy maqsadlariga erishish uchun hamkorlardagi mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish. Bu bilan sub’yektlarning har biri alohida va umumiy maqsad atrofida birlashib, faqat o‘z samaradorligini oshirishdangina emas, shuningdek, boshqa sub’yektlarning ham yuqori samaraga erishishidan manfaatdor bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Yuqoridagi nazariy asoslardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish innovatsion-integratsion yondashuvlar asosidagi jarayon bo‘lib, bunda pedagogik va texnologik jarayonlar takomillashtirilib borilishi zarur. Bu faoliyat o‘zida nazariy va amaliy faoliyat integratsiyasi asosidagi o‘qitishning quyidagi o‘ziga xos metodlarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi: ta’lim jarayoni ishtirokchilarining demokratik va insonparvar munosabatga asoslangan pedagogik texnologiya, bunda shaxsiy munosabatlarni shakllantirish, individual yondashuv, erkin boshqaruv, insonparvar paradigmalarga asoslangan tizim namoyon bo‘ladi; ta’lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatini jadallashtirishga va samaradorlikka asoslangan pedagogik texnologiya, bunda shaxsga yo‘naltirilgan va muammoli o‘qitishga asoslangan texnologiyalardan foydalanish va kommunikativ o‘qitish tizimi nazarda tutiladi; ta’lim jarayonini ixtisoslashgan va tabaqalashgan yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiya, bunda qo‘shimcha dasturlar asosidagi o‘qitish, yakka holda tashkil qilinadigan ta’lim texnologiyalari, maxsus kurs va loyihalash texnologiyalarini joriy etish nazarda tutiladi. Darhaqiqat, ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ustuvor omili bo‘lib, bunda integratsion tamoyillar alohida ahamiyatga ega. Ta’lim sohasidagi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, audial vositalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyat - e’tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalar qatori o‘z xususiy sohasiga, metod va vositalariga ega. Biror zamonaviy pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog‘liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, Toshkent sh., 2017 yil 20 aprel, PQ-2909-son
2. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития: Инновационный курс. Кн. 1. -Казан: Изд-во Казан, ун-та, 1996. - 570 с.
3. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностю ориентированные технологии пофессионалного развития спесиалиста. – Екатеринбург, 1999.
4. Ishmuhamedov R., Mirsoliyeva M.. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 60 bet.
5. Muslimov N.M., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 bet.
6. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
7. Muxamedov G‘.I, Xo‘jamqulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri. -T.: Universitet, 2020. 280 b.
8. Тарасова Н.В. Стратегия реализации компетентностного подхода в образовании: историко – педагогический аспект – М.: ФИРО, 2007. – 52 с.
9. Toshtemirova S.A. Klasterli yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirish / monografiya. – T.: “MALIKPRINT”, 2021.
10. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy nazariy asoslari / pedagogika fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) diss..avtoref. –T.: 2020.

ISSN 3030-3907